

## YANGI DAVR FALSAFASIDA TEXNOLOGIK TARAQQIYOT VA EKOLOGIK MUVOZANAT MASALASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

*Aliyev Nozimjon Nurullajon o'g'li, Toshkent davlat transport  
universiteti doktoranti*

## SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE ISSUE OF TECHNOLOGICAL PROGRESS AND ECOLOGICAL BALANCE IN THE PHILOSOPHY OF THE NEW ERA

*Aliyev Nozimjon Nurullajon o'g'li, Doctoral student of Tashkent  
State transport University*

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА И ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РАВНОВЕСИЯ В ФИЛОСОФИИ НОВОГО ВРЕМЕНИ

*Алиев Назимжон Нурулладжан оглы, докторант  
Ташкентского государственного университета транспорта*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada texnologik taraqqiyot va ekologik muvozanatning yangi davr falsafasidagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati, xorijiy faylasuflarning qarashlari hamda ularning polemikasi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, texnologik taraqqiyot, ekologik muvozanat, inson va tabiat, ekologik ong, texnopessimizm, texnologik optimizm, axloqiy mas'uliyat, yashil texnologiya.

**Abstract:** This article analyzes the socio-philosophical significance of technological progress and ecological balance in the philosophy of the new era, the views of foreign philosophers and their polemics.

**Keywords:** technology, technological progress, ecological balance, Man and nature, environmental awareness, technopessimism, technological optimism, moral responsibility, green technology.

**Аннотация:** В данной статье анализируется социально-философское значение технического прогресса и экологического равновесия в философии Нового времени, взгляды зарубежных философов и их полемика.

**Ключевые слова:** технология, технический прогресс, экологический баланс, человек и природа, экологическое сознание, технопессимизм, технологический оптимизм, этическая ответственность, зеленые технологии.

**KIRISH.** Yangi davr falsafasi inson tafakkurining tubdan o'zgarishi, ilmiy kashfiyotlar va texnologik taraqqiyot orqali tabiatga yondashuvning yangi bosqichga ko'tarilishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasida tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarning keskin o'zgarishi, ekologik muammolarning kuchayishi jamiyatda falsafiy mulohazalarga yangicha talabni yuzaga keltirdi. Mazkur maqolada yangi davr falsafasida texnologik taraqqiyot va ekologik muvozanat masalasi ijtimoiy-

falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy faylasuflarning fikrlari hamda ular o'rtasidagi falsafiy polemika bayon etilib, texnologik taraqqiyotning inson va tabiat munosabatlariga ta'siri ko'rib chiqiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Yangi davr, odatda, Uyg'onish davri va undan keyingi ilmiy inqiloblar bilan boshlangan, deb e'tirof etiladi. Frensis Bekon, Rene Dekart, Galiley, Nyuton kabi buyuk olim va faylasuflarning izlanishlari, bir tomondan, ilm-fan



<https://orcid.org/0009-0004-9549-6527>

e-mail:

[nozimjonoff@gmail.com](mailto:nozimjonoff@gmail.com)

taraqqiyotiga, ikkinchi tomondan, falsafiy dunyoqarashning keskin o'zgarishiga sabab bo'ldi. Frensis Bekon tabiatni "bo'ysundirish" g'oyasini ilgari surgan holda, ilm-fan va tajriba-mantiqiy uslub orqali tabiatni egallash mumkinligini ta'kidledi (Bekoning fikricha, tabiat inson irodasi va bilimiga bo'ysundirilgan ekan, bu jarayon insonning qudratini namoyon etadi). Ammo keyingi avlod faylasuflar bu masalaga turlicha yondashdilar.

Rene Dekart o'zining "Tafakkur metodi to'g'risida risola" (Discours de la méthode) asarida tabiatni izchil va ratsional usulda o'rganish kerakligini, inson aqli esa shunday bilish tabiat sirlarini ochishga xizmat qilishini ilgari suradi. Dekart fikricha, inson tabiatga nisbatan maxsus mavqega ega, chunki ong va aql-zakovat faqat unda mujassam[1]. Biroq ayni paytda Dekartning klassik ratsionalizmi keyinchalik texnik progressga shubhasiz ijobiy baho berish tendensiyasiga ham hissa qo'shdi. Zero, "tabiatni boshqarish" g'oyasi insonni atrof-muhit ustidan hukmron kuchga aylantirish imkoniyatlarini paydo qilar edi.

XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ilmiy kashfiyotlar yanada chuqurlashib, sanoat inqiloblari uchun zamin yaratdi. Aynan shu davrda texnik taraqqiyot jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida e'tirof etila boshlandi. Shunga qaramasdan, tabiat oldidagi mas'uliyat, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash kabi tushunchalar alohida mavzu sifatida kuzatilmagan. Buning sababi shundaki, o'sha davrning fundamental falsafiy tendensiyalari — antroposentrizm, ratsionalizm va tabiiy resurslar cheksiz degan tasavvurlarga asoslanar edi. Inson tabiatga ustun kuch sifatida qarar, texnika buning vositasi bo'lib xizmat qilardi.

XIX-XX asrlarda texnika revolyutsiyalari avj oldi. Bunda bug' mashinalaridan tortib, elektr energiyasi, kimyo sanoati va nihoyat, XX asr o'rtalaridan boshlab yadro energetikasi, keyinchalik esa raqamli inqilobning boshlanishi (kompyuter texnologiyalari, internet) buning misolidir. Natijada, sanoat va iqtisodiyotda yuqori samaradorlikka erishildi, jamiyatning material farovonligi oshdi. Ammo global ekologik muammolar ham birdaniga kun tartibiga chiqdi. XX asrda ekologik inqiroz belgilari, xususan, iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, suv va havo ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi jiddiy muammo sifatida paydo bo'ldi.

Reychel Karsonning "Sukunat bahori" ("Silent Spring") asari ushbu muammolarga jamiyat e'tiborini qaratishda muhim bosqich bo'ldi[2]. Karson kimyoviy pestitsidlarining tabiatdagi oziq-ovqat zanjirlariga ta'sirini sharhlab, inson faoliyatining salbiy oqibatlarini aniq dalillar bilan ko'rsatib berdi. Ma'lum bo'ldiki, texnologik taraqqiyot bevosita tabiatga zarar yetkazishi, ekologik muvozanatni buzishi mumkin. Xuddi shu davrda faylasuflarda texnik taraqqiyotning ijtimoiy va ekologik oqibatlarini o'rganish haqida jiddiy mulohazalar shakllana boshladi.

**MUHOKAMA.** XX asrning mashhur faylasufi Martin Haydegger texnologiyani inson borliqni "ochilish" jarayonida qo'llaydigan muhim "vosita" deb talqin qiladi [3]. Uning nazarida, texnologiya — insonning borliq bilan aloqasini shakllantirish uslublaridan biri. Lekin Haydegger fikricha, zamonaviy texnika tabiatga nisbatan maxsus hokimiyat sharoitini yaratadi, ya'ni tabiat inson xohishi va ehtiyojlariga butkul bo'ysundiriladi. Tabiatga nisbatan "zahirada turadigan narsa" sifatida qaralish, atrof-muhitni cheksiz ekspluatatsiya qilishga olib keladi. Haydegger bu holatni "Gestell" deb atab, texnik ong natijasida borliqni quyi darajaga tushirib, inson o'z hayotining mohiyatini unutishi mumkinligidan xavotir bildiradi.

Boshqa faylasuf Hans Jonas esa "Mas'uliyat imperativi" ("The Imperative of Responsibility") konsepsiyasini ilgari surib, insonning texnika qarshisidagi mas'uliyatini jiddiy qayta ko'rib chiqish kerakligini aytadi[4]. Jonas nazarida, texnika tadrijiy rivojlanib, inson qudratini shu darajada oshirib yuborganki, u nafaqat alohida hudud yoki mintaqa, balki butun sayyora taqdiriga ham ta'sir o'tkazadi. Aynan shu sababli, Jonas "Uzoq kelajak" (Future) tamoyilini himoya qiladi. Inson har qanday texnik yutuqni qo'llash oldidan, uning uzoq muddatli oqibatlarini hisobga oladigan etik pozitsiyaga ega bo'lishi lozim. Ya'ni ekologik muvozanat inson qudratining cheklanganligi va tabiat oldidagi javobgarligi bilan belgilanadi.

Yangi davr falsafasining ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, texnologik taraqqiyot bu nafaqat moddiy ishlab chiqarish qudratining o'sishi yoki ilm-fan yutuqlarining amaliyotga tatbiq etilishi, balki insonning tabiat oldidagi burchi, javobgarligi hamda ma'naviy tamoyillariga qayta nazar tashlashni ham talab qiladigan jarayondir.

Birinchiidan, texnik rivojlanish jadal tus olishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham o'zgaradi. Sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari insonlarning turmush tarziga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Qishloq xo'jaligidan sanoatga o'tish, energetika sohasidagi kashfiyotlar, transport va kommunikatsiyalarning kengayishi natijasida insonlar tabiiy muhitdan tobora uzoqlashdi. Natijada, tabiatni inson "chet"dagi narsa sifatida tasavvur qiladigan dunyoqarash shakllanib bordi. Shunday tasavvur, an'anaviy madaniy qadriyatlarining yemirilishi hamda tabiatga shunchaki boylik manbai sifatida qarash bilan birlashganda, ekologik inqirozni chuqurlashtirdi.

Ikkinchiidan, "ekologik muvozanat" so'zi chuqur ontologik ma'noga ega. Unda tabiat — inson hayotining faqat tashqi muhiti emas, balki bevosita mavjudligining tub negizi sifatida e'tirof etiladi. Yangi davr falsafasi ham insonni tabiatning bir qismi sifatida qarash zarurligini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldi. Ayniqsa, Fenomenologiya va ekzistensializm o'qimlari ta'sirida (Haydegger, Merlo-Ponti va boshqalar) tabiatni "yashab turiladigan muhit" sifatida idrok etish konsepsiyasi ommalashdi.

Uchinchiidan, ijtimoiy-falsafiy tahlil nuqtai nazaridan, texnologik taraqqiyot bilan ekologik muvozanat bir-biriga zid jarayon emas, balki ular o'rtasida muvozanatni topish, uyg'unlashuvni ta'minlash masalasi kun tartibiga chiqadi. Ayni zamonda, bu muvozanatni ta'minlash faqat ijtimoiy yoki iqtisodiy qarorlar bilan cheklanmaydi. Masala keng ma'nodagi madaniy paradigma o'zgarishi, tabiat va inson munosabatlariga yangicha nazar, hukmron texnokratik paradigmaning cheklanishi bilan bog'liq.

**NATIJALAR.** Texnologik taraqqiyot va ekologik muvozanat masalasida xorij faylasuflari o'rtasida bir nechta polemika yo'nalishlarini ko'rish mumkin. Birinchi polemika "Inson tabiatni cheksiz bo'ysundirish huquqiga egami yoki yo'qmi?" savoli atrofida shakllanadi. Frensis Bekon fikricha, tabiatni bo'ysundirish — bu inson taraqqiyotining tabiiy maqsadi (Bekon nazarida "bilim — qudratdir"), lekin keyinchalik bu g'oya jamiyatning bir qismida e'tiroz uyg'otdi. Endilikda, texnik progress jarayonida "inson va tabiat tengligi" degan konsepsiya ham yuzaga keldi.

Ikkinchi polemika "Globallashuv jarayonida ekologik inqirozga kim javobgar?" degan savol bilan

bog'liq. Ushbu masalada Krispin Tikell "Climate Change and World Affairs" asarida iqlim o'zgarishi global masala ekani, barcha davlatlar, korporatsiyalar, jamiyat institutlari va alohida shaxslarning ham mas'uliyati borligini ta'kidlaydi [5]. Biroq texnokratik yondashuvni himoya qiluvchilar esa texnik innovatsiyalar orqaligina ekologik muammolarni bartaraf etish mumkin, deb hisoblashadi. Shunday yondashuv tarafdorlari "yashil texnologiyalar" konsepsiyasini rivojlantirib, iqtisodiy-texnik taraqqiyot bilan ekologik barqarorlik o'rtasida kelishuv bo'lishi mumkinligini aytadilar.

Uchinchi polemika "Ekologik muammolar hal etilishida bozor mexanizmlari va davlat siyosati qay darajada rol o'ynashi kerak?" savoli atrofida aylanadi. Bir tomondan, Yurgen Habermas kabi faylasuflar demokratik jarayonlar va ijtimoiy konsensus vositasida texnologik rivojlanish yo'nalishlarini aniq belgilash, jumladan, ekologik cheklovlar o'rnatish mumkinligini ta'kidlaydi [6]. Boshqa tomondan, turli texnopessimist qarashdagi faylasuflar texnologik taraqqiyot bevosita iqtisodiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lgani uchun demokratik jarayonlardan ham chetda turishi mumkinligidan xavotirlanadilar. Ular fikricha, yirik korporatsiyalar, iqtisodiy lobbizm guruhlari, davlat bilan hamkorlikda bo'lib, ekologik cheklovlardan ko'ra iqtisodiy foydani ustun qo'yishi tayin, deya e'tiroz bildiradilar.

Yangi davrning keyingi bosqichlarida, xususan, XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, "yashil texnologiyalar", "barqaror rivojlanish" kabi g'oyalar rivoj topdi. Mazkur g'oyalarning maqsadi — texnologiya va ekologik muvozanatni uyg'unlashtirish. Yashil texnologiyalar (quyosh, shamol, geotermal energiya, qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish) orqali insonning tabiatga ta'sirini kamaytirish va shu orqali ekologik inqirozning oldini olishga urinish kuzatiladi. Ayni paytda, bu sohada ham bir qator falsafiy muammolar mavjud. Jumladan, ekotexnosentrizm (ya'ni, texnologik yechimlar orqali ekologik muammolarni hal etish mumkin, degan yondashuv) ba'zan tanqid qilinadi. Chunki, tanqidchilarning fikricha, muammo ildizi texnologiyaning o'zida emas, balki insonning tabiatga bo'lgan munosabatida, iqtisodiy va siyosiy manfaatlarining ustunligida, xulosa qilib aytganda, madaniy paradigmadagi yotibdi. Shu sababli, texnologiyalarni "yashil" qilish muammoning kichik

qismigina yechadi, ammo inson va tabiat o'rtasidagi falsafiy masofani qisqartira olmaydi.

Zamonaviy davrda texnologik taraqqiyot sur'atlari tobora oshib borayotgan bir paytda, ekologik muammolar, ijtimoiy nizolar va global xavfsizlik masalalari ham keskinlashmoqda. Mana shu holatda, yangi davr falsafasi merosini ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish juda muhim. Chunki Frensis Bekon, Rene Dekart, Immanuil Kant, Martin Haydegger, Hans Jonas kabi allomalar bildirgan mulohazalar shuni ko'rsatadiki, biz texnologiya orqali tabiatni o'zlashtirganimiz sari, bir tomondan, taraqqiyot yo'lida katta ijobiy o'zgarishlarga erishamiz, ikkinchi tomondan esa, kutilmagan salbiy oqibatlar riskini ham kuchaytiramiz. Bunday risklar bilan kurashish uchun jamiyatda quyidagi omillarga e'tibor qaratish muhim:

1. Ekologik ongni shakllantirish: Ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy institutlar orqali insonda tabiatga nisbatan mas'uliyat, hamkorlik va mehr tuyg'usini rivojlantirish zarur. Falsafiy ma'rifat esa bunday ongning metodologik asosini tayyorlab beradi.

2. Davlat siyosati va xalqaro hamkorlik: tabiat resurslaridan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni qayta ishlash, iqlim o'zgarishiga moslashish kabi masalalar bo'yicha xalqaro konvensiyalar, milliy qonunlar, davlat siyosati bo'lmasa, ekologik inqiroz chuqurlashishi mumkin.

3. Texnologik etika: Hans Jonas ilgari surgan mas'uliyat imperativi texnologik qarorlar qabul qilishda odob-axloqiy me'yorlar va ijtimoiy manfaatni inobatga olishni talab etadi. Yangi texnologiyalarni joriy qilishdan oldin, ularning iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy oqibatlari ham har tomonlama baholanishi lozim.

4. Barqaror rivojlanish paradigmasi: barqaror rivojlanish konsepsiyasi (sustainable development) iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va ekologik muvozanatni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Buning uchun esa texnologik taraqqiyot ham shu maqsadga xizmat qilmog'i kerak.

**XULOSA.** Yangi davr falsafasida texnologik taraqqiyot va ekologik muvozanat masalasini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, inson tabiatga ustun kuch sifatida yondashishi natijasida paydo bo'lgan qurilishlar, zavod-fabrika sanoati, texnologik inqiloblar dastlab iqtisodiy va

ijtimoiy farovonlikni oshirgan bo'lsa-da, oradan vaqt o'tishi bilan global ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Xorijiy faylasuflar — Martin Haydegger, Hans Jonas, Krispin Tikell, Yurgen Habermas va boshqalarning ekofalsafiy qarashlari bu muammolarni chuqur muhokama qilgan holda, insoniyat oldida allaqachon birinchi darajali vazifa – texnologik taraqqiyotdan voz kechmasdan, ekologik barqarorlikni ta'minlash vazifasi turganini bayon etadi.

Shunday qilib, XXI asrda asosan yangi davr falsafasida yaratilgan konsepsiyalarni qayta ko'rib chiqish jarayoni davom etmoqda. Tabiiy inqiroz xavfi, global iqlim muammolari, resurslar cheklanganligi, biologik xilma-xillikning pasayishi kabi ko'plab omillar yaxlit yondashuvni taqozo qiladi. Bu esa ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan texnologik taraqqiyot va ekologik muvozanatni raqobatdosh jarayonlar sifatida emas, o'zaro uyg'unlashtirilishi lozim bo'lgan ustuvor maqsadlar sifatida ko'rish zaruratini tug'diradi. Aynan shu uyg'unlik masalasi kelajakda falsafiy tadqiqotlar, siyosiy qarorlar, iqtisodiy loyihalar va ijtimoiy tashabbuslar markazida bo'lishi muqarrar.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Descartes, René. "Discours de la méthode." – Paris: Librairie Générale Française, 1999. – pp. 25.
2. Carson, Rachel. Silent Spring. – Boston: Houghton Mifflin, 1962. – pp. 45.
3. Heidegger, Martin. The Question Concerning Technology and Other Essays. – New York: Harper Torchbooks, 1977. – pp. 15.
4. Jonas, Hans. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. – Chicago: University of Chicago Press, 1984. – pp. 62.
5. Tickell, Crispin. Climate Change and World Affairs. – Cambridge: Harvard University Press, 1977. – pp. 33.
6. Habermas, Jürgen. The Theory of Communicative Action, Vol.1. – Boston: Beacon Press, 1984. – pp. 71.
7. N.N.Aliyev. Ilmiy-texnik taraqqiyot jamiyat rivojiga ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida. Turkiy davlatlarning o'zaro manfaatli integratsiyasi – TDTU. 2024-yil 29-30-mart. 586-592-betlar.

N.N.Aliyev. Ilmiy-texnik taraqqiyot tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili. NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan, 2024-12-son. 304-308-betla